

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

BAROTOVA XURSHIDA JALOLOVNA

“BOBURNOMA”DA XOTIN-QIZLAR OBRAZI TALQINI

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)

Barotova Xurshida Jalolovna
“Boburnoma”da xotin-qizlar obrazi talqini.....10

Баротова Хуршида Жалоловна
Интерпретация образа женщины в «Бабурнаме».....26

Barotova Xurshida Jalolovna
Interpretation of the image of woman in
“Boburnama”50

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works54

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

BAROTOVA XURSHIDA JALOLOVNA

“BOBURNOMA”DA XOTIN-QIZLAR OBRAZI TALQINI

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida № 3737 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Buxoro davlat universiteti veb-sahifasida (www.buxdu.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyo.net) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Hayitov Shavkat Ahmadovich,
filologiya fanlari doktori(DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Suloymonov Isroil Isomiddinovich,
filologiya fanlari doktori(DSc), professor
Jabborov Nurboy Abdulhakimovich,
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc 03/04.06.2021 Fil.72.09 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil "___" _____ soat ___dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 200117, Buxoro shahri, M. Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+99865221-29-14); faks: (+99865221-29-14, email: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____) raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+99865221-29-14).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "___" _____ da tarqatildi.

(2024-yil "___" _____ dagi ___-raqamli reyestr bayonnomasi).

Y.S. Saidov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

A.R. Axmedov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, f.f.nomzodi, dotsent

D.Z.Rajabov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyoti o'z taraqqiyotining barcha bosqichlarida yangi, eng ilg'or adabiy-estetik an'analarga asoslangan. Ijtimoiy voqelikni teran ifodalash, unda inson hayotini va shaxsiyatini hech qanday mubolag'alarsiz, to'qimalarsiz aniq va tiniq aks ettirish "Boburnoma" ning tarixiy-adabiy asar sifatidagi o'ziga xos azaliy va abadiy qimmatini namoyon qiladi. Ayniqsa, xotin-qizlar ijtimoiy va madaniy-ma'rifiy hayotiga daxldor umumbashariy qadriyatlar, umuminsoniy tuyg'ular ifodasi "Boburnoma" da o'zining to'laqonli va teran aksini topganki, ayni muammoni tadqiq etish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Dunyo adabiyotshunosligida "Boburnoma" poetik olamiga qiziqish tobora ortib bormoqda. Takrorlanmas g'oyaviy-badiiy ko'lami, o'ziga xos tasvir uslubi bilan ilm-fanning yigirmadan ortiq sohasi bo'yicha nodir ma'lumotlar beruvchi bu qomusiy asar salkam 500 yildan beri jahon adabiyotshunoslarining diqqatini o'ziga tortib keldi. Dunyodagi o'nlab mutarjimlarning qo'liga qalam tutqazdi. Bugungi kunda "Vaqoe"ni yanada chuqurroq o'rganish jahon adabiyotshunosligining dolzarb muammosiga aylandi. Shuning uchun ham dunyo adabiyotshunosligi erishgan ulkan yutuqlarga tayanib, "Boburnoma"da talqin qilingan xotin-qizlar obrazini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Istiqlol davrida va undan oldingi yillarda o'zbek adabiyotshunosligida "Boburnoma" ni tadqiq etish borasida samarali ilmiy izlanishlar amalga oshirildi, shu bilan birga, bu borada yechimini kutayotgan muammolar ham kam emas. Ijtimoiy-maishiy, ma'naviy-ma'rifiy, ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida xotin-qizlar masalasiga insoniyat tarixida hech qachon Mustaqil O'zbekistondagidek e'tibor qaratilgan emas¹. Mamlakat strategiyasining mazkur eng muhim tamoyili "Boburnoma"dagi xotin-qizlar obrazini chuqur o'rganishni g'oyat dolzarb adabiy-estetik kategoriya sifatida yuzaga chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ -2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-son "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro konferensiyani o'tkazish to'g'risida"gi, 2020-yil 19-oktabrdagi PQ-4865-son "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini nishonlash to'g'risida"gi qarorlari, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, 2021 – yil 5-martdagi PQ- 5020 –son "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash,

ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 7-martdagi PF -87-son "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" , 2023-yil 21-dekabrda PF-208-son

¹ Mamlakatimizda "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" Prezident farmoni doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1 ta farmoni, 2 ta qarori, hukumatimizning 6 ta qarori va 4 ta farmoyishi qabul qilindi.

“Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining faoliyatini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoyishi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy - huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ilmiy natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish” yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. “Boburnoma”ni nashr etish, tarjima qilish, tadqiq etish, asarning badiiy xususiyatlari, tarixiy-badiiy qimmat, muallifning tasvirlash mahorati, o‘ziga xos bayon uslubi kabi masalalarni yoritishda A.Fitrat, M.Shayxzoda, H.Yoqubov, Oybek, O.Sharafiddinov, P.Shamsiyev, V.Abdulloyev, A.Qayumov, S.Jamolov, B.Valixo‘jayev, X.Nazarova, S.Aliyev, A.Samaylovich, I.Stebleva, N.Veselovskiy, M.Sal‘ye, S.Azimjonova, S.Hasanov, A.Abdug‘afurov, H.Qudratullayev, R.Vohidov, Y.Is‘hoqov, I.Haqqul, T.Fayziyev, F.Sulaymonova, I.Bekjon, B.Qosimov, G‘.Salomov, M.Otajonov, A.Ibrohimov, V.Rahmonov, H.Boltaboyev, SH.Rustamxo‘jayev, N.Nizomiddinov, N.Jumaxo‘ja, D.Salohiy, N.Jabborov, I.Adizova, Z.Xolmanova, D.Hoshimova, R.Karimov, M.Abdullayeva, M.Olimov, G‘.Sotimov, Z.Mashrabov, S.Jalilov, B.Rajabova, I.Sulaymonov² kabi o‘zbek va

1. Абдурауф Фитрат. Ўзбек адабиёти намуналари. – Туркистан, 1928. – 312 б. Алиев С.А. Поетическое творчество З.М.Бабура. Тошкент, 1948. Азимджанова С.А. Ферганский удел Омар-Шейха и Бабура (в XV и начале XVI вв). Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1949; В. Зоҳидов. Бобирнинг фаолияти ва илмий-адабий мероси ҳақида // Бобир. Бобирнома. – Тошкент, 1960; Ҳ.Ёқубов. Бобир. – Тошкент, 1941; Адабий мақолалар. Т.: Ғафур Ғулوم номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1970. – 366 б; Джамалов С. О художественных особенностях «Бабурнаме». Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1961; А.Қаюмов. Асарлар. 5-жилд. Тошкент, «Мумтоз сўз», 2009. – Б. 303; Б.Валихўжаев. Заҳириддин Муҳаммад Бобир. // Ўзбек адабиёти тарихи. Беш жилдлик. 3-жилд. Тошкент, 1978. – Б. 380; Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг адабий танқидий қарашлари. Тошкент, 1993; Мумтоз сиймолар. Сайланма: 2 томлик. (2-том Заҳириддин Муҳаммад Бобурга бағишланган). Тошкент.: Халқ мероси нашриёти, 2002; «Бобурнома» улкан асар намунаси. Ўзбек насри тарихи. Тошкент, 1982; Бобур. Девон / Нашрга тайёрловчи А.Абдуғафуров. – Тошкент: Фан, 1994; Ғайбуллоҳ ас-Салом, Отажон Н. Жаҳонгашта Бобурнома. – Тошкент: Фан, 1996; Н.Отажонов. Бадий таржима ва илмий шарҳ. Т.: «Билим» жамияти, 1978. – 26 б; Бобур. Мубаййин / Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. – Тошкент, 2001. – Б.182; Ҳасанов С. Бобурнинг Рисолайи аруз асари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1986. – Б. 274; Бобир. Мухтасар / Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. – Тошкент: Фан, 1971. – Б.241; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. – Тошкент. Шарқ. 2002; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Т.: «O‘zbekiston», 2011. – 84 б; Н.Отажонов. «Бобурнома» жаҳон адабий жараёнида: киёсий-типологияк таҳлил. Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1994; Ҳ.Қудратуллаев. Бобурнинг адабий-эстетик олами. – Тошкент, «Маънавият», 2018. – Б. 271; Бобурнинг давлатчилик сиёсати ва дипломатияси. – Тошкент: «Шарқ» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2011. – Б. 431; Бобур армони. – Тошкент: «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2009. – Б. 383; «Бобурнома»нинг тарихий-адабий ва услубий таҳлили (Навоий, Бобур, Хондамир ва Восифий насрининг киёсий таҳлили). Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1998; Бобурнинг адабий-эстетик қарашлари. – Тошкент: Фан, 1983; С.Жалилов. Бобир ва Юлий Цезар: (Киёсий ҳаётнома). Т.: Янги аср авлоди, 2001; Воҳидов Р. Биз билган ва билмаган Бобур. Адабий ўйлар. Тошкент: «Маънавият», 1999; Ё. Исҳоқов. Нақшбандия таълимоти ва ўзбек адабиёти. – Т.: Абдулла Кодирий номидаги ХМН, 2002; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бабуриды библиография. Тузувчи-муаллиф Ш.Ш.Рустамхўжаев. – Москва: Издательство восточной литературы, 2016. – Б. 1180; А. Иброҳимов. Бобурийлар мероси. – Т.: Фан, 1998; Ҳ. Болтабоев. Мумтоз сўз кадри. – Тошкент: Адолат, 2004. – Б.138; Хайриддин Султонов. Бобурийнома. – Тошкент, «Маънавият», 2019. – Б. 463; Раҳмонов В. Бобурнома. Ҳозирги ўзбек тилига мослаштирилган таъдил; Шоҳ, адиб ва шоир. З.М.Бобур. «Бобурнома» китобига муқаддима. Тошкент,

rus olimlari hamda xorij olimlari: J.Leyden, U.Erskin, L.U.King, R.M.Kaldekot, F.G.Talbot, S.Leyn-Puul, E.Holden, M.Elfinston, G.M.Elliot, A.Denison Ross, V.X.Morleand, A.S.Beverij, A.de Long-Per, A.J.Klaport, J.Dranjete, Pave de Kurteyl, Jan-Pol Ru, Lui Bazen, Jan-Lui Bake Grammon, Ahmad Ali Ko‘hzod, Abdulhay Habibiy, Shafiqa Yorqin, Gulchin Maoniy, Zokir Husayn, Nurul Hasan, Muni La‘l, M.Haydar, S.P.Sharma, H.Lemb, U.Tekston, Temur Xamit, Bayuzak Kojabek o‘g‘li, Rashit Rahmati Arat, Bilol Yujel, Eyji Mano‘ kabi olimlar katta xizmat qildilar.

Fitrat o‘ndan ortiq tadqiqotlarida Bobur va uning ijodi haqida ma‘lumot berib, “O‘zbek adabiyoti namunalari”(1928) majmuasida “Boburnoma”ning Hindiston qismini O‘zbekistonda ilk marta chop ettirdi. S.Azimjonova, A.Qayumov, P.Shamsiyev, S.Mirzayev ulug‘ olimning matnshunoslik sohasidagi faoliyatini davom ettirib, “Vaqoe”ning mukammal nashrlarini amalga oshirdilar. V.Zohidov, H.Yoqubov, A.Qayumov, V.Rahmonovlarning tadqiqotlarida “Boburnoma” badiiy nasr namunasi sifatida tadqiq qilinadi. “Tarixi Boburiy”ni yetuk badiiy asar sifatida e‘tirof etgan V.Rahmonov “Vaqoe”dagi badiiy tasvirga xos talqinlar, voqea-hodisalarni butun voqeiligi bilan kitobxon ko‘z oldida gavdalantira olish, so‘z ustida san‘atkorona ishlash, uslub baquvvatliligi, o‘zigagina xosligi, ta‘sirchanligini alohida ta‘kidlaydi³.

“Boburnoma”ning tarixiy-adabiy, uslubiy xususiyatlari H.Qudratullayev, Mirzo Boburning naqshbandiya tariqatiga munosabati R.Vohidov, Y.Is‘hoqov, D.Salohiy, Bobur shaxsiyati N.Jabborov va I.Adizovaning tadqiqotlarida yaxshi yoritilgan. “Boburnoma”da g‘olib va mag‘lub shaxs ruhiyati tasviri I.Sulaymonovning doktorlik dissertatsiyasida⁴ maxsus tadqiq qilingan.

“Boburnoma” – jahon ilmiy-badiiy tafakkurida o‘ziga xos va mos, favqulodda yangi asar. Odatda, jahonshumul adabiy-nazariy konsepsiyalar shunday yuksak san‘at namunalarining tahlili natijasida paydo bo‘ladi. Tarixiy-badiiy obrazda ijodkorning o‘ziga xosligi, shaxsi, dunyoqarashi, tafakkur darajasi, u mansub bo‘lgan shajara, davr va muhitning manfaat va intilishlari zuhr topadi. Bunday obrazning “ezgu so‘zi, ezgu amali, ezgu niyati” (“Avesto”)odamlar qalbiga muhrlanadi. Nomi bashariyat mulkiga aylanadi. Dissertatsiyamizda bajarilgan ishlardan farqli ravishda “Vaqoe”da xotin-qizlar obrazi talqini maxsus monografik tadqiqot sifatida amalga oshirildi⁵.

«Ўқитувчи», 2008. – 287 Б; Низомиддинов Н. Қадимги Ҳиндистон тарихи, диний эътиқоди ва маданияти. Т.: Фан ва технология, 2014. – Б 461; Буюк бобурийлар тарихи (XVI-XIX аср). Монография. Тошкент.: Фан ва технология, 2012; Д. Салохий. Бобурнинг буюк эътиқоди. – Самарқанд, 2019. – Б. 88; Жабборов Н. Султонларнинг сараси / Маърифат надир. – Т.: Маънавият, 2010.71-77-б; Очилов Э. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Т.: «O‘zbekiston», 2013. – 134 Б; Бобур. Рисола. Т.: Абу матбуот консалт, 2011. – 32 Б; 3. Холманова. «Бобурнома» лексикаси тадқиқи. Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2009; Д.Хошимова. «Бобурнома» матнидаги тасвирий воситаларнинг инглиз тилига таржималари тадқиқи. филол.фан.док. ... дисс. – Тошкент, 2018; Каримов Р. «Бобурнома»даги шеърлар хорижий тилдаги таржималарининг қиёсий таҳлили. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2003; М.Абдуллаева. «Бобурнома» ва «Шажараи турк»нинг қиёсий-типологик таҳлили. Филол. фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 2004.

³ Rahmon.V. Shoh, adib va shoir-Zahiriddin Muhammad Bobur. – Boburnoma.Hozirgi o‘zbek tiliga moslashtirilgan tabdil.Toshkent: O‘qituvchi, 2008. – B.17.

⁴ Сулоймонов И. И. «Бобурнома»да ғолиб ва мағлуб шахс руҳий холатининг бадий тасвири . Филол. фан. док. ... дисс. – Самарқанд, 2020.

⁵ Istiqolol sharofati bilan mazkur mavzuga yaqin ayrim ixcham risola va maqolalar yaratildi: Fayziyev.T.Temuriy malikalar.- Toshkent: Xalq merosi,1994.-26b. Rajabova.B. Oqila va mudabbira onalar.//O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati. 2013, №23. Olimov.S. Xadichabegim siymosi.// Tafakkur.2018№2.-B.5-9.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan muassasa ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Buxoro davlat universiteti O'zbek adabiyoti kafedrasining "O'zbek adabiyotining dolzarb muammolari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi "Boburnoma"da keng tasvir etilgan xotin-qizlar obrazi ifodasidagi o'ziga xosliklar, g'oyaviy-badiiy talqin xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

"Boburnoma" obrazlar jozibasi, mukammal badiiy-falsafiy konsepsiyasi bilan adabiy-badiiy tafakkur tarixida fenomen hodisa ekanligini asoslash;

xotin-qizlar obrazini yaratishda muallif yashagan davr dunyoqarashi, ta'limot va falsafiy nazariyalari o'z ifodasini topganligini Qur'oni karim oyatlari, hadislar va Sharq allomalarining asarlaridan iqtiboslar keltirish bilan dalillash;

xotin-qizlar obrazi XV asr oxiri XVI asrning dastlabki 30-yillarida Movarounnahr, Xuroson, Afg'oniston, Hindistonda yuz bergan siyosiy-harbiy, oilaviy-maishiy, madaniy-ma'muriy, ijtimoiy-iqtisodiy kabi murakkab munosabatlar, voqealar, aloqalar, ziddiyatlar fonida ochib berilganligini aniqlash;

"Vaqoe" markazida hamma vaqt aniq tarixiy shaxs timsoli turishi, uning aslu nasabi, ajdodu avlodi, davlat tizimida tutgan mavqeyi, hukmdorga munosabati, xulqi atvori singari ko'p tarmoqli tamoyillar asosidagi talqniga e'tibor qaratish, xotin-qizlar obraziga xos poetik qonuniyatlarga baho berish.

Tadqiqotning obyektini "Boburnoma", "Habib us-siyar", "Tarixi Rashidiy", "Musaxxar al-bilod", "Humoyunnoma" asarlari tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini "Boburnoma" da xotin-qizlar tasviri, shaxsiy his-tuyg'ulardan xoli, mubolag'a va to'qimalarsiz "har qanday so'zning rostini bitish va har ish aynan qanday voqe bo'lgan bo'lsa, shunday aytish" tamoyili asosida aniq va tiniq, obrazli va obyektiv talqin qilinganligi masalasi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Mavzuni yoritishda qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, biografik, struktural va germeneytik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

"Boburnoma"ning o'ziga xos badiiy olami, xotin-qizlar timsoli misolida yetakchi qahramonlari va ularning ruhiyati, davlat boshqaruvi hamda hayot diallektikasidagi o'rni, mavqei va ishtiroki Esandavlat Begim, Qutlug'nigor Xonim, Feruza Begim, Oqobegim obrazlarini tahlil qilish orqali ochib berilgan;

Asardagi xalqchil ruh, xalqchil psixologiya mohiyati, xotin-qizlar obrazida mujassamlangan muallifning falsafiy-badiiy konsepsiyasi, dunyoqarashining eng asosiy qirralari Xonzoda Begim, Mohim Begim, Begim Sulton, Opoq Begim kabi xotin-qizlar misolida aniqlangan;

Aql-idroki o'tkir, mulohazakor, ma'rifatli ayol oila va davlatning qudrati bo'lgani kabi hayoti va e'tiqodi mehr-shafqat, hikmat va ma'rifatdan yiroq amalparast ayol xalqni parokandalikka, davlatni parchalanishga olib kelishi Xadicha Begim, Zuhrabegi Og'a timsollarining xatti – harakatlari, muomala – munosabatlari orqali yoritilgan;

Z.M. Bobur, G'. Xondamir, M. Haydar, M.A. Qatag'on ijodlari aro tarixiy-tipologik, ijodiy-badiiy mushtaraklik Qutlug'nigor Xonim, Oqobegim, Xonzoda Begim, Begimsulton, Beka Sultonbegim obrazlarining tahlili misolida dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“Boburnoma”da xotin-qizlar obrazi yuksak mahorat bilan yaratilganligini tadqiq etish natijasida chiqarilgan ilmiy xulosalar adabiyotshunoslik fanini yangi ilmiy-nazariy qarashlar bilan boyitgan ;

xotin-qizlar tasvirida Zahiriddin Muhammad Bobur talqinlarining o'ziga xosligi, ta'sirchanligi hamda ustuvorligi nazariy-amaliy jihatlardan asoslangan;

“Vaqoe”da xotin-qizlar bilan aloqador voqea-hodisalar talqini ayollar shaxsiyatiga doir fikr-mulohaza va ma'lumotlarning faqat rostini yozish tamoyiliga asoslanganligi ilmiy-nazariy jihatdan dalillangan;

muallif qalamga olgan tarixiy voqelik hamda tarixiy shaxslar(xotin-qizlar) haqidagi talqinlarning aniqligi, “Boburnoma”ning jahon ilmiy-badiiy tafakkuri tarixida o'ziga xos, chinakam tarixiy tasvir namunasi ekanligi boshqa nufuzli tarixiy manbalar bilan qiyosiy-tipologik tahlil qilish orqali izohlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilganligi, chiqarilgan xulosalarning qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, biografik, struktural va germevt tahlil usullari orqali asoslanganligi, ishonchli tarixiy-adabiy manbalar va ilmiy adabiyotlardan foydalanganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Mazkur dissertatsiyaning ilmiy ahamiyati shundaki, chiqarilgan nazariy xulosalar nafaqat o'zbek, balki jahon adabiyotshunosligida “Boburnoma”da talqin etilgan barkamol ayol va uning oila hamda jamiyat hayotida tutgan o'rni, inson va uning ma'rifiy kamoloti masalalari yuzasidan mavjud ma'lumotlarni kengaytiradi va to'ldiradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy o'quv yurtlarining o'zbek tili va adabiyoti, jurnalistika, filologiya fakultetlarida filologiya va tillarni o'qitish(o'zbek) ta'lim yo'nalisharida “O'zbek adabiyoti tarixi”, “XX asr o'zbek adabiyoti”, ”Istiqlol davri o'zbek adabiyoti”, ”Uslubiyat asoslari” fanlaridan ma'ruza va seminarlar o'tishda, mumtoz adabiyot tarixi sohasida talabalar bilimini oshirishda, ilmiy maqola, darslik va o'quv qo'llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriylanishi. “Boburnoma”da xotin-qizlar obrazi masalasini tadqiq etish asosida olingan ilmiy natijalardan:

“Vaqoe”da xotin-qizlar obrazining yuksak mahorat bilan yaratilganligi, xotin-qizlar tasvirida Zahiriddin Muhammad Bobur talqinlarining o'ziga xosligi, ta'sirchanligi hamda ustuvorligi nazariy-amaliy jihatdan asoslangan xulosalardan Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universitetida 2017-2020- yillarda bajarilgan OT-F 1-030 raqamli “O'zbek adabiyoti tarixi” ko'p jildlik monografiyani (7jild) chop etish mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024 yil 10-maydagi 04/1-1222 – sonli ma'lumotnomasi). Natijada “Boburnoma”da obrazlar bilan ifodalangan g'oyaviy-badiiy masalalar talqini fundamental loyiha tadqiq doirasini kengaytirishga xizmat qilgan;

Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asaridagi uylanish va ayollar to'g'risidagi talqinlar “Boburnoma” dagi xotin-qizlar obrazini o'rganishda sharh vazifasini o'taganligi, “Majolis un-nafois” va “Vaqoye”dagi ma'lumotlar qiyosiy o'rganilishi natijasida ma'rifiy-axloqiy komillik mezoniga nisbatan aniq tarixiy shaxslar misolida barkamol shaxs timsoli yaratilganligiga doir ilmiy xulosalardan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2018-2020- yillarda

bajarilgan “PZ-20170926459 raqamli “Navoiyshunoslik tarixi”(XX-XXI asrlar)” mavzusidagi amaliy loyihada istifoda etilgan. (Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024 yil 10-maydagi 04/1-1221 – sonli ma’lumotnomasi). Natijada loyihaning memuar janridagi ma’lumotlarni Alisher Navoiy asarlari va boshqa adabiy-tarixiy manbalar, Markaziy Osiyo va xorijiy mamlakatlarda yaratilgan adabiyotshunoslikka oid asarlar bilan qiyosiy o‘rganib, muhim ilmiy-nazariy xulosalarga kelish imkoniyati kengaygan.

Davlat boshqaruvida oqila va tadbirkor ayolning o‘rni, poklik va halollik, vafo va sadoqatning oila va jamiyatni tutib turuvchi tayanch omil ekanligi haqidagi tahlillardan Buxoro viloyat Ma’naviyat va ma’rifat kengashi Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi Buxoro viloyat bo‘limi tomonidan o‘tkazilgan “Bobur yoshlar nigohida” , “O‘zbek xalqining ikki buyuk dahosi” ,”Ayol ma’rifati” kabi mavzulardagi ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tayyorlashda foydalanilgan. (Buxoro viloyat ma’naviyat va ma’rifat kengashi Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi Buxoro viloyat bo‘limining 2024 yil 6-maydagi 01/187 - sonli ma’lumotnomasi). Natijada tadbir ishtirokchilarining xalqimiz etno madaniyatidan chuqur joy olgan ayolda, eng avvalo, Yaratganga, keyin esa oilasi, eri, farzandlari oldida ma’naviy javobgarlik, mas’ullik hissi haqidagi bilimlari kengaygan.

“Boburnoma”da xotin-qizlar shaxsiyati, ularning o‘sha davrdagi mavqeyi, davr siyosiy hayotida tutgan o‘rni, axloqi va davlatchilikka munosabati haqida chiqarilgan ilmiy xulosalardan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Buxoro viloyat bo‘limi huzuridagi “Nilufar” adabiy to‘garagi, shuningdek, viloyat, shahar va tumanlarda faoliyat ko‘rsatayotgan to‘garak mashg‘ulotlarida, mumtoz adabiyot tarixini o‘rganish va targ‘ib etishga bag‘ishlangan tadbirlarda foydalanilgan (O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Buxoro viloyat bo‘limining 2024- yil 24-apreldagi 10-sonli ma’lumotnomasi). Natijada “Vaqoe”dagi adabiy ma’lumotlar yangicha ilmiy talqinlarda to‘garak a’zolariga taqdim etilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 9 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shu jumladan, 5 ta respublika, 4 ta xalqaro konferensiyalarda qilingan ma’ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 18 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta ilmiy maqola, ulardan 5 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya, kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tarkib topgan. Tadqiqotning hajmi 176 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti tavsiflangan. Ishning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon etilgan. Tadqiqot davomida olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati ko‘rsatilgan. Mavzuning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqot usullari yoritilgan. Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish,

chop etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Boburnoma**"da ona obrazi deb nomlangan va uch fasldan iborat. Bobning dastlabki fasli "**Esandavlat Begim timsolida tadbirkor va aql-zakovatli ayol talqini**" deb atalgan.

"Boburnoma" badiiy kompozitsiyasida tutgan o'rniga qarab tarixiy-adabiy asardagi xotin-qizlar obrazini quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1. Yetakchi obrazlar.
2. Yordamchi obrazlar.

Birinchi turga Esandavlat Begim, Shohbegim, Qutlug'nigor Xonim, Xonzoda Begim, Mohim Begim, Xadicha Begim, Feruza Begim, Oqobegim, Opoqbegim, Begim Sulton, Zuhrabegi Og'a obrazlarini kiritish mumkin. Mazkur ayol obrazlarining har biri o'zida katta badiiy umumlashmani mujassamlantiradi va shu bilan birga o'quvchi nazarida individual bir inson sifatida namoyon bo'ladi.

Yordamchi (epizodik) obrazlarga Beka Sultonbegim, Shahrbonubegim, Poyanda Sultonbegim, Hul-hul Enaga, Popo Og'acha, Cho'libegim, Oqbegim, Qorako'zbekim, Bekabegim, Sultonimbegim, Kichikbegim, Minglibiy Og'acha, Zubayda Og'a, Latif Sulton Og'acha, Begi Sulton Og'acha, Oysha Sulton Begim, Zaynab Sulton Begim timsollari kiradi. Tasvir asosida turgan obraz, bayon etilayotgan voqea-hodisaga aloqadorligi, xarakter xususiyatlari, faoliyati hamda yetakchi obrazlarning ijobiy yoki salbiy xususiyatlarini ochish maqsadida muallif epizodik obrazlardan ustalik bilan foydalangan. Jumladan, onasi Qutlug'nigor Xonim shaxsiyatidagi samimiyligni, chingiziy sanamning barchaga birdek muomalada bo'lishi, aqlliligi va tadbirkorligini yanada yorqinroq sathda ko'rsatish maqsadida Otinbibi obrazini keltirgan. Farzandi taqdirini har narsadan ustun qo'ygan Qutlug'nigor Xonim xarakteridagi fatiylik xususiyatlari talqinida Oysha Sulton Begim, Zaynab Sulton Begim yordamchi obrazlari harakatga keladi.

"Boburnoma"da yana 62 nafar xotin-qiz nomi tilga olingan bo'lib, ular temuriy va chingiziy amaldorlarning oilaviy muhitini imkon qadar mufassal yoritish uchun keltirilgan. Yetakchi yoki yordamchi obraz maqomida talqin qilinmagan.

"Boburnoma"ni sinchiklab o'qir ekanmiz, Bobur Mirzo aqlli va tadbirli ayol sifatida, eng avvalo, katta onasi (buvisi), mo'g'ul hukmdori Yunusxonning ayoli Esandavlat Begim shaxsiga yuksak ehtirom ko'rsatganligining guvohi bo'lamiz. Oqila, dono va mehribon Esandavlat Begim avval mo'g'ul ulusida, keyinchalik Farg'ona davlatida **saltanatni boshqarishda** faol qatnashgan.

Ushbu zukko va tadbirli ayolning kelib chiqishi mo'g'ul xonlariga borib taqaladi. Esandavlat Begim mo'g'ul beklarining ulug' maqomga ega vakili Sher Hojibekning qizi bo'lgan. "Vaqoe"dan o'qiyimiz: "Ul fursatda Sag'richi beklarning ulug'i Sher Hojibek erdi. Yunusxon aning qizi Esandavlat Begimni oldi. **Mo'g'ul urf-odatlariga ko'ra, mo'g'ul to'rasi xonni va Esandavlat Begimni bir oq kiygiz ustiga o'lturg'izib xon qilib ko'tardilar**".⁶ Qaysi xalq yoki millatga tegishli bo'lishidan qat'i nazar uzoq yillar davomida shakllangan, davrlar o'tishi bilan muqaddaslashib avlodlardan avlodlarga o'tgan bunday urf-odatlar talqini

⁶ Bobur. Z. M. Boburnoma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – B.22.

“Vaqoe”ga tuz va malohat bag`ishlaydi. “Tarixi Boburiy” kompozitsiyasida muhim o`rin tutadi. Tarixiy-adabiy asar badiiyatini ta`minlashda katta ilmiy qimmat kasb etadi. “Urf-odatlar xalqning qiyofasidir. Ularsiz xalq qiyofasiz obraz, behuda va amalga oshmaydigan xayoldir”.⁷ Esandavlat Begimning nufuzli oiladan kelib chiqishi va mo`g`ul xonlaridan Yunusxonga nikohlanishi unga siyosiy-huquqiy jihatdan ilg`or muhitga kirish imkonini bergan. Uning xon bilan birgalikda oq namat ustiga o`tirishi – to`la ma`noda shu mamlakatning qonuniy malikasi huquqini kafolatlagan.

Yunusxon oilasi va davlatiga uzoq yillar halol xizmat qilib, o`z nomini shon-shuhratga chulg`agan Esandavlat Begim mamlakat va uni boshqarish sohasida yetarli tajribaga ega bo`lgan. U davlatni idora etishdagi eng kichik muammolardan tortib, katta masalalargacha o`z tajribasidan kelib chiqib atroflicha baholay olgan. O`z kuzatuvlari asosida davlat tizimida faoliyat ko`rsatayotgan hokimlar, beklar, amiru umarolar, turli maqomdagi saroy ayonlarining har biri nima bilan, qanday nafas olayotganligini aniq va tiniq his qilib turgan.

Bobur Mirzoning mamlakat boshqaruvida Esandavlat Begim g`oyatda muhim o`rin tutadi. Ulug` onaning ziyrakligi va mamlakat boshqaruvidagi mahorati bois o`n ikki yoshida Farg`ona taxtiga o`tirgan Bobur davlatiga qarshi kurashga otlangan Hasan Ya`qub boshchiligidagi dushmanlar hamlasi barbod qilinadi. “Boburnoma”dan boshqa e`timodli manbalarda ham ushbu fitna va uning fosh etilishi bilan bog`liq tahlillarda Esandavlat Begimning o`rni va faoliyatiga to`g`ri, aniq baho berilgan: “Bul muhorabani ko`rgan saroyning ulug` bekasi Esandavlat Begim shul fursatda mashvarat o`tkazmish. Hasan Ya`qubni beklidan tushirish xayolini ko`rdilar. Hasan Ya`qub beklidan tushgandin so`ng ma`zul qilinib, fitnasiga barham berildi.”⁸ Esandavlat Begimning uzoq yillar davomida to`plagan siyosiy tajribasi 12 yoshida Farg`ona viloyati taxtiga o`tirgan nabirasini siyosiy bo`ronlar va fitnalardan himoya qilishda qo`l kelgan. Tarixiy shaxslar va voqea hodisalarga qarash va baho berishda xuddi shunday ijodiy-badiiy mushtaraklik “Boburnoma”ning G`yosiddin ibn Humomiddin Xondamir, Muhammad Arab Qatag`on asarlari bilan qiyosida ham aniq ko`rinadi.

Umarshayx Mirzoning favqulodda vafotidan keyin, mamlakatda yuzaga kelgan keskin siyosiy vaziyat beklarning yanada yaqinroq birlashmog`ini, yakdillik bilan harakat qilmog`ini taqozo etar edi. Ana shunday vaziyatda Esan Davlat Begim shaxsiyatidagi kuchli nuqtalar kengroq ochiladi. U o`z oilasi, o`z xalqi, o`z Vatanining ma`naviy yetakchisi, dono maslahatchisi sifatida beklarning boshini boshiga mohirona qovushtiradi.

Siyosiy hushyorlik, Mirzo Bobur davlatiga sadoqat, ogohlik va zarur o`rinlarda kuchli ijtimoiy siyosat yurita olish kabilar Esandavlat Begim obrazida yorqin ifodasini topgan. Shu tufayli Bobur Mirzo o`zining siyosiy hayotini aql-zakovat nuri bilan yoritgan ulug` onasi shaxsiyatiga yuksak muhabbat va rag`bat bilan qaragan: **“Xotunlar orasida ra`y va tadbirda mening ulug` onam Esandavlat Begimcha kam bo`lg`ay edi. Bisyor oqila va mudabbira edi. Ko`proq ish - kuch alarning mashvarati bila bo`lur edi”**.⁹ Ixcham iqtibosda o`z

⁷ Beliniskiy V.G. Adabiy orzular. – Toshkent: Adabiyot va san`at, 1977. – B. 7.

⁸ Muhammad Haydar Mirzo. Tarixiy Rashidiy. – Toshkent: Sharq NMAK, 2010. – B.147-148.

⁹ Bobur. Z. M. Boburnoma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – B.44.

individual qiyofasiga ega bo'lgan shaxsning takrorlanmas timsoli badiiy ta'sirchan tarzda hosil qilingan. "Vaqoe" muallifining bu fikrlariga uyg'un va quvvatlovchi mulohazalar boshqa manbalarda ham mavjud. Dissertatsiyamizning mazkur faslida Esandavlat Begimning yuksak idrokli, farosatli, tadbirkor va aql-zakovatli, mamlakat boshqaruvida faol ayol ekanligi haqidagi talqinlar "Boburnoma"ni boshqa manbalar bilan qiyosiy-tipologik tahlil qilish orqali ochib berilgan.

Bobning keyingi fasli **"Chingiziy sanam obrazining boburona ifodasi"** deb nomlanadi. "Boburnoma"da eng ko'p tilga olingan xotin-qiz muallifning onasi Qutlug'nigor Xonimdir. **Qutlug'nigor Xonim "Boburnoma"ning o'n olti o'rnida tilga olingan.** "Vaqoe"da Qutlug'nigor Xonim obrazi har tomonlama badiiy dalillangan falsafiy teranlikda tasvirlangan. Umarshayx Mirzoning xotini, chingiziy sanamning g'oyatda nazokatli, oqila, qat'iyatli, tadbirkor ayol ekanligi Bobur Mirzo taqdiri bilan bog'liq ravishda tarixiy voqealar bayoni mag'zidan sizib chiqib, tabiiy ravishda o'quvchi e'tiborini o'ziga tortadi. "Boburnoma"da nazarga tashlanadigan ona va o'g'il taqdiri, ona va o'g'il bosgan qadam, ona va o'g'il yurgan yo'l bir-biridan uzoq yo'llar emas, balki bir-biri bilan chirmashib chatishib ketgan yo'llardir: **"...mening validam aksar qozoqliklarda va fatarotlarda mening bilan bir edilar"**.¹⁰ Bir necha kalimadan tarkib topgan mo'jaz ifodada farzand muhabbati bilan tirik bo'lgan mard, fidoyi onaning mukammal siymosi san'atkorona badiiy tajassumini topgan. Qutlug'nigor Xonimning hayot yo'li boshqa temuriy malikalar hasbi holidan tubdan farq qiladi. Uning mamlakat birligi va dahlsizligi uchun faol harakati o'g'li Zahiriddin Muhammad Boburning Farg'ona viloyati podshohligi taxtiga o'tirishi bilan boshlanadi. Shu tarixiy voqeadan bir kun oldin uning ko'z ochib ko'rgan umr yo'ldoshi kabutar va kabutarxona bilan jarga qulab 39 yoshida fojiali ravishda halok bo'lgan edi. Yana mamlakat ikki o't orasida qolgan bir vaziyat edi. Farg'onaning janub tomonidan Samarqand podshosi Sulton Ahmad Mirzo, shimoldan Toshkent hukmdori Sulton Mahmudxon Axxi ustiga qo'shin tortgan, ayrim beklar va qo'shin sardorlarining ko'nglini vahima tumani qoplagan edi. Ana shunday tahlikali, keskin, siyosiy vaziyatda Qutlug'nigor Xonim onasi Esan Davlat Begim bilan birga komil ishonch bilan beklarni va amirlarni birdam va hamjihat bo'lib, mamlakatni mudofaa qilishga chorlaydi. Bek va amirlarning kechagina taxtga o'tirgan yosh podshohdan yuz o'g'irmasligi, unga ishonchsizlik bilan qaramasligi, odamlar orasida parokandalik quloq yozmasligi uchun butun vujudi bilan harakat qiladi. Iltijo qilib Allohdan o'g'liga madad berishini so'raydi. "Ruhiy quvvat" ifodasini har kim o'zicha anglaydi, o'zicha tushunadi. Asli toza, tabiati beg'ubor odamgina munojot chashmasidan suv icha oladi. Yaqin kunlargacha biz bunday qudratli manba ustida fikr yuritish, ilmiy izlanish olib borish narida tursin, u haqda gapirish, muloqot qilish ham mumkin bo'lmagan bir hayot tarziga kirib qolgan edik. Ruhoniy tabiatga ega bo'lib, kuchli ruhiy qudratni namoyon qiluvchi Xudoga munojot ajdodlarimiz hayotida dalil-isbotlarsiz qo'llanib kelingani, e'tiqodi mustahkam, Allohning biru borligiga, qudratiga ishonchi komil, pokiza bandasining jon-jahdi bilan, astoydil so'ragan istagini Qodirul Qudrat bajo

¹⁰ Bobur Z.M. Boburnoma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005. – B.22.

keltirishi ushbu dissertatsiyada ilk marta tarixiy jarayon va Qutluqnigor Xonim obrazi mantiqidan kelib chiqib, hayot haqiqati bilan nozik uyg'unlashtirilgan.

Bobning uchinchi fasli **“Farzand kamolotida onaning o'rne: Feruza Begim va Oqobegim”** deb nomlangan. Feruza Begim – Sulton Husayn Mirzo Boyqaroning onasi. Jahongir Amir Temurning to'ng'ich qizi Og'abegimning nevarasi. Z.M.Bobur Feruzabegim va uning oqila qizi Oqobegim haqida o'z umr kitobining 1505-1506 yil voqealari bayoniga bag'ishlangan qismida “Valodat va nasabi” sarlavhasi ostidagi faslchada ma'lumot beradi. “Vaqoye” muallifining o'ziga xos tasvir uslubiga ko'ra, “Boburnoma” kompozitsiyasida g'oyat muhim o'rin tutgan “Valodat va nasabi”, “Avlodi”, “Xavotin va sarori” kabi ichki sarlavhalar tarixiy-adabiy asarda katta badiiy-emotsional vazifani bajaradi. O'quvchini “Vaqoe”ga bo'lgan qiziqishini orttirib, uni asarning g'oyaviy-badiiy olamiga olib kiradi. “Matn maydonidagi har bir sarlavha norrativ (qiziqtiruvchilik) mohiyatiga ega”.¹¹

1445-yilda Husayn Mirzoning otasi – Sulton G'iyosiddin Mansur vafot etadi. Sulton Husayn 7 yoshida otasidan ajraladi. Feruza Begimning eri Sulton G'iyosiddin Mansur Mirzo temuriyzoda bo'lsa-da, mulkgirlik va mamlakatdorlikdan yiroq bo'lgan. Har taraflama jahongir Amir Temur avlodidan bo'lgan, karim ut-tarafayn (Bobur) Feruza Begim eri taqdiriga bitilmagan mamlakat va mamlakatdorlikni o'g'li Sulton Husayn Mirzo qismatida ko'rish orzusi bilan yashagan. O'g'liga bolalik yillaridanoq Amir Temurning zafarli yurishlari haqidagi tarixiy qissalarni so'zlab bergan. Feruza Begim O'rta Osiyoda qudratli markazlashgan davlatni qaror toptirgan Amir Temurni bilish va tanish, mulkgirlik va mamlakatdorlik sari tashlangan dastlabki eng muhim qadam ekanligini chuqur his qilgan. U o'g'li Sulton Husayn Mirzoni ulug' maqsad va buyuk reja sari ilhomlantirish uchun bor imkoniyatlarini ishga solgan. Sulton Husayn Boyqaroning amakivachchasi Sulton Vays Mirzo Movorounnahr hukmdoriga qarshi isyon ko'targanida Sulton Abusa'id Mirzo o'z mulozamatida bo'lgan 13 shahzodani hibsga oladi. Qamoqqa olinganlarning orasida Sulton Husayn ham bor edi. O'sha paytda Feruza Begim Hirotda bo'lgan. U Hirotdan Samarqandga jo'nayotgan savdo karvoni bilan Movorounnahr poytaxtiga yetib boradi va o'g'li Sulton Husaynni hibsdan ozod qiladi. Feruza Begimning tutqunlikdagi o'g'lini qutqazish uchun shunday berahm, shafqatsiz hukmdor oldiga dadil borishi uning favqulodda dovyurak, jasur ayol ekanligini ko'rsatadi.

“Agar bir kishi yoshligida nafs buzulib tarbiyasiz, axloqsiz bo'lib o'sdimi, “allohu akbar”, bunday kishilardan yaxshilik kutmak yerdan turub yulduzlarga qo'l uzatmak kabidur”, – deb yozadi “Turkiy guliston yohud axloq” muallifi.¹² Feruza Begim farzandlariga yoshligidan nafs tarbiyasini to'g'ri bergan. Uning to'ng'ich o'g'li “shikasta nafslik, tavozu va ta'zimlik”¹³ Boyqaro Mirzo amalparastlik, nafsparastlik illatidan mutlaqo xoli bo'lgan. Podshoh ukasi bilan hech qachon amal talashmagan. Aksariyat temuriylardan farqli ravishda Feruza Begimning o'g'illari Boyqaro Mirzo va Sulton Husayn Mirzo bir-birlariga mehrlil bo'lganlar. “Vaqoe”dan o'qiymiz: **“Boyqaro Mirzo Sulton Husayn Mirzodan ulug' edi va**

¹¹ Барт Р. Избранные работы. Семиотика. Поэтика. – Москва: Прогресс, 1989. – Стр. 431.

¹² Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Тошкент.: Ўқитувчи, 1992. – Б.11.

¹³ Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 13-жилд. – Тошкент: Фан, 1997. – Б.168.

navkari edi, vale devon boshida hozir bo'lmas edi, g'ayri devonda bir to'shakda o'ltururlar edi. Inisi Balx viloyatini berib edi. Necha yil Balxda hukumat qildi".¹⁴ Dissertatsiyaning ushbu faslida favqulodda dovyurak, jasur, oqila ayol Feruza Begim o'zidagi ezgu insoniy fazilatlarni, ezgu amallarni qizlariga ham ko'chira olganligi Oqobegim hamda uning Navoiy va Bobur muhabbatini qozongan o'g'li Kichik Mirzo obrazini keng tahlil qilish orqali yoritilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Ayol ma'rifati va futuvvati talqini**" tarzida sarlavhalangan va uch fasldan tarkib topgan. Bobning birinchi fasli "**Javonmardlik haqiqatining Xonzodabegim timsolidagi in'ikosi**" deb nomlangan. Xonzoda Begim (1478-1544) – temuriy hukmdor Umarshayx Mirzoning (1456-1494) qizi, "Boburnoma" muallifining tug'ishgan opasi. "Vaqoe"ning 899 (1493) yil voqealari bayoniga bag'ishlangan qismidan o'qiyimiz: "**Bori qizlaridin ulug' Xonzodabegim edi. Mening bila bir tuqqon erdi. Mendin besh yosh ulug' erdi**".¹⁵ Bobur Mirzo Farg'onaga podshoh bo'lgan vaqtda Xonzoda Begim o'n yettida, ayni balog'at yoshida bo'lgan. Qutlug' Nigorxonimning 1494-yildan umrining oxirigacha bo'lgan hayot yo'li 12 yoshli podshoh o'g'lining Haq subhanahu va taolo taqdiriga bitgan mashaqqatli taqdiri bilan qanchalik bog'liq bo'lsa, Xonzoda Begimning qismati ham podshoh ukasining Azal Kotibi taqdiriga bitgan yo'l bilan shunchalik tutashgan.

Zehn va idroki keng, sohibjamol malika Xonzoda Begim ayni oila qurish, kelinlik saodatiga erishish yoshiga yetganida otasi Umarshayx Mirzo jordan yiqilib, dunyodan o'tadi. Ota taxtiga o'tirgan podshoh ukasi hayotining darbadarlik, sarson-sargardonlik davri boshlanadi. "Tarixi Rashidiy" asari muallifi Mirzo Haydar yozib qoldirgan mashaqqatli, azob-uqubatlarga to'lib-toshgan lavhalar Xonzoda Begim hayotiga ham to'la dahldordir. "Falakning zulmkorligi va xorlikka solishi oqibatida"¹⁶ asl xilqatda sadaf ichidagi gavhar kabi aziz va pok Xonzoda Begimning "xon qiziga loyiq" (Abdulla Qodiriy ifodasi) yosh, navqiron yigitga qalliq bo'lish orzusi son-sanoqsiz xotinlari, cho'ri va kanizlari bor bo'lgan, o'z otasidan ham besh yosh katta, nabiralik cholning haramiga kirish bilan yakunlanadi. Bu Xonzoda Begim uchun ham, yakkayu yolg'iz qizi orqali ulug' orzu-havaslar ko'rish umidida yurgan Qutlug' Nigorxonim uchun ham kutilmagan bir hodisa edi. Bokira, husnu jamolda benazir temuriy malikaning beg'ubor orzu-umidlari parchalanadi. Muhammad Shayboniyning sun'iy gullarga burkangan hashamatli saroyi Jahongir Amir Temur naslidan bo'lgan malak siyrat malika uchun oltin qafas vazifasini bajargan. O'z xohish-irodasi bilan emas, majburiyat ostida nikohga rozilik bergan, muxolif sulolaning yo'lboshchisiga o'zini bag'ishlagan bo'lsa-da, u soliha, musulima ayol sifatida yolg'iz farzandi Xurramshohni otasi Shayboniyga itoat, yuksak e'tiqod va hurmat ruhida oqil va musulmonvash qilib tarbiyalaganligi dissertatsiyada tarixiy manbalar guvohligida asoslab berildi. "Boburnoma"dan o'qiyimiz: "Shoh Ismoil o'zbekni Marvda bosqonda Xonzoda Begim Marvda edi. Mening jihatimdin yaxshi ko'rub, andin uzatdilar. Muforaqat imtidodi o'n yil bo'lub erdi... **begim va beginning**

¹⁴ Бобур З.М. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1990. – В. 147.

¹⁵ Bobur. Z. M. Boburnoma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – B.19.

¹⁶ Muhammad Haydar Mirzo. Tarixi Rashidiy. – Toshkent: Sharq NMAK, 2010. – B.6.

yovug'idag'ilar tanimadilar. Bovujudkim, otimni aytdim ham, muddatidan so'ngra tanidilar".¹⁷ "Boburnoma"dan keltirilgan mazkur lavha istagan kitobxonni befarq qoldirmaydi. Hayajonga solib, eng ko'ngli qattiq odamning ham yuragini ezadi. Opaning o'z tug'ishgan ukasini tanimasligi hayratlanarli va fojeali hodisa. Hokimiyat, toj-u taxt, mulkgirlik dag'dag'asi opani ukadan, onani qizidan ajratgan. Mirzo Boburning jozib yuragidan otilib chiqib, "Boburnoma" sahifalariga singgan faryod Xonzoda Begim taqdiriga, "o'zi bila bir tuqqon" go'zal opasining xazon bo'lgan yoshligiga achinish va hasrat nidosidan boshqa narsa emas. Mirzo Bobur aytganidek, judolik muddati, o'n yil cho'zilgan. Xonzodabegim shu o'n yil ichida hayotning barcha issiq-sovug'ini boshdan kechirgan, sabr-toqati mukammal, aslzoda, javonmard, temuriy malika ekanligini isbotlagan.

Ko'ngil ko'zi futuvvat nuri bilan ravshan Xonzoda Begimning insoniy go'zalliklari va axloq martabalari, g'oyat katta mardlik va jasorat bilan nafsoniy belgilar zulmatini yorib o'tib, chinakam insoniy fitratni o'z shaxsida nurlantira olganligi dissertatsiyada chuqur asoslangan.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli "**Mohim Begim ma'rifati talqini**"deb atalgan. "Boburnoma"da Mirzo Bobur Mohim Begimni qachon va qayerda nikohiga olgani haqida ma'lumot uchramaydi. Mohim Begim bilan bog'liq tarixiy lavhalar "Vaqoe"da Muhammad Humoyunning tug'ilishi (1507) bilan boshlanadi. Aql-zakovatli va chiroyli Mohim shohning suyukli rafiqasi va Bobur Mirzo haramining bosh xonimi bo'lgan. Valiahd shahzoda Humoyunning tug'ilishi uning mazkur maqomiga siyosiy-huquqiy jihatdan qonuniy tus bergan.

Mohim Begim o'g'li Humoyunning o'z tug'ishgan ukasi bo'lishini, yaxshiyomon kunlarida uning akasiga hamroh bo'lishini g'oyatda istagan. Ammo taqdir hukmi bilan malikaning bu istagi amalga oshmagan. Muhammad Humoyundan keyin, to'rt farzand ko'rib, ularni tuproqqa topshirgan. Axiyri farzand talabida yurgan mushtipar, motamzada ona kundoshlarining bolasi orqali orzu-havas kechirmoqni ko'ngliga tugadi. Umid ko'zini o'sha paytda bo'yi og'ir bo'lgan kundoshi Dildor Og'achaga tikadi. "Vaqoe"dan o'qiymiz: "**Mohimdan xat keldi, bitibdurkim, xohi o'g'ul bo'lsun, xohi qiz mening baxt-u tole'm – manga bering, man farzandchilay saxlay**".¹⁸ Farzand ko'rish istagi, onalik muhabbati Mohim Begimni hech qachon tark etmagan. Shu o'rinda Mohim tabiatiga xos yana bir fazilatni ta'kidlash joiz. Chin do'st va yori sodiq (Abdulla Avloniy ifodasi) malika eri qayerda bo'lmasin, unga xat yozishni kanda qilmagan, Bobur Mirzo ham suyukli malikaga javob maktublarini yuborishdan erinmagan. O'g'il tug'ilsa edi, Humoyun bilan og'a-ini bo'lsa edi, "Vaqoe" muallifining ifodasi bilan aytganda, "bir tuqqon havasi xeyli" Mohim Begimga aslo tinchlik bermagan. Mohim boburiy shahzoda Hindol Mirzoni uch kunligidan o'ziga olib, o'zi hojasiga va'da berganidek "farzandchilay asray"di. Zahiriddin Muhammad Boburning kenja o'g'li Abunosir Muhammad Hindol Mirzo (1518-1551) oqila, o'z davrining yetuk olimasi, keng bilimi aql-zakovati va donoligi¹⁹ bilan Bobur Mirzo va uning arkoni davlati nazarida katta mavqe' va ehtiromga sazovor bo'ladi. Mohim Begim

¹⁷ Bobur Z.M. Boburnoma. – Toshkent: Yulduzcha, 1990. B. 11-12.

¹⁸ Bobur. Z. M. Boburnoma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – B.377.

¹⁹ Сотимов Ф. Марказий Осиё ва Ҳиндистон тарихида бобурийлар даври. – Тошкент: Фафур Фулом, 2009. – Б.36.

tarbiyasida voyaga yetib, eng avvalo, otasining muhabbatini qozonadi. Hindiston podshosi o'lim to'shagida yotganida ham har daqiqa Badaxshonda bo'lgan kenja o'g'lini sog'inib, uni tilab turgan. Mohim Begim kundoshi Dildor Og'achaning qizi, Hindol Mirzoning singlisi Gulbadan Begimni ham ikki yoshdan boshlab o'z tarbiyasiga olgan. Pokiza fitrat endigina yorug' dunyoga ko'z ochgan bolada barchadan baland bo'ladi. Shuning uchun ham Mohim Begim ma'sum, toza, ozoda, murg'ak qalbi hali dog' ko'rmagan bolani va bolalik dunyosini qaynoq muhabbat bilan sevgan. O'zi sevgan narsaga qattiq bog'lanib, uning asiriga aylangan. Agar shunday bo'lmaganda edi, bu oqila fidoyi malika boburiylar ma'rifatini dunyoga yoygan Gulbadan Begimni keragicha yuksak maqomda oliy fazilatlar bilan ziynatlantirib voyaga yetkaza olmagan bo'lar edi.

Xondamirning "Habib us-siyar" hamda Shayx Abu Fazl Allomiy (1551-1603)ning "Akbarнома" asaridagi boburiylar shajarasi, haram ahli, xotin-qizlar va ularning farzandlari haqidagi ma'lumotlarga tayanib, ushbu ishda ilk marta Mohim Begim Sulton Husayn Boyqaroning ona tomondan qarindoshi ekanligi, Mohim obrazida ona shajarasiga xos keng fe'l, azmu shijoat, tantilik, karam, zakiylik xislatlari mavjudligi chuqur tahlil qilindi. Sulton Husayn Boyqaro shaxsiga jiddiy e'tibor va ehtirom bilan qaragan Mirzo Bobur Mohim bilan turmush qurish orqali qarindoshlik munosabatlarining, shajaraviy aloqalarning mustahkamlanishini ko'zlaganligi, shu bilan birga bu nikoh ortida turgan istiqbolning oydin kunlarini ilohiy bir ichki sezgi bilan his qilganligi asoslab berildi.

Bobur Mirzo qalbida Mohim Begim va uning farzandi Muhammad Humoyunga muhabbat davlat va davlatdorlik, mulkgirlik va mamlakatdorlikdan baland turganligi "Boburnoma"dagi "Tasadduq voqeasi"ni g'oyaviy-badiiy tahlil qilish orqali mufassal yoritildi .

Ikkinchi bobning uchinchi fasli "**Ayol va taqdir: sababiyat va sadoqat**" deb nomlanadi. "Boburnoma"ning 899 (1494) yil voqealari bayoniga bag'ishlangan qismida Bobur ona tomondan bobosi Yunusxonning xotinlaridan biri sifatida Shohbegim nomini tilga oladi: "Xonning yana bir xotini Shohbegim edi. Agarchi o'zga xotinlari ham bor edi, vale o'g'lonlari va qizlarining onalari bu ikki edi".²⁰ "Vaqoe" muallifi "bu ikki" deganda Esandavlat Begim va Shohbegimni nazarda tutgan. Yunusxon Badaxshon shohi Sulton Muhammadning qizi Shohbegimga ikki davlat o'rtasidagi diplomatik munosabatlarni yaxshilash maqsadida xotini Esandavlat Begimning maslahati bilan uylangan. Badaxshon hukmdorining qizi Shohbegim sag'richi beklarining ulug'i Sher Hojibek qizi Esandavlat Begim kabi aql-zakovatli, keng mushohadali ayol bo'lganligi uchun kundoshlar orasida hech qachon nizo kelib chiqmagan. Yunusxonning shu ikki ayoldan tug'ilgan yetti farzandi munosabatlarida o'gaydorlik kuzatilmagan. Bobur Mirzo o'zining buvisi (katta onasi) Esandavlat Begimga qanchalik yuksak hurmat va ehtirom ko'rsatsa, Shohbegimga xizmat va hurmatni ham undan kam qilmaganligi dissertatsiyada chuqur asoslangan.

Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining umr kitobi "Vaqoe"da sadoqatda benazir, bashariyat gulshanining eng kamyob, eng mahbub guli – "vafo royihasi" (Navoiy) bilan jismu joni, butun vujudi ziynatlangan ayollar obrazini mahorat

²⁰ Бобур З.М. Бобурнома. – Тошкент: Юлдузча, 1990. – В. 14.

bilan yaratgan. Ana shunday obrazlardan biri husnu –jamolda, tengi yo‘q, vafo va hayoda benazir Opoqbegim timsolidir. “Boburnoma”da talqin qilingan oqila ayol – Opoqbegimning mahzun “qissasi” maroq bilan o‘qiladi va juda katta taassurot qoldiradi. Opoqbegim Sul-ton Husayn Boyqaro nikohidagi ayol bo‘lgan. Ammo farzand ko‘rmagan. Sul-tonning eng suyukli, kamsuqum, xushmuomala ayoli sifatida doimo uning e‘tiborida turgan. “Boburnoma”dan va tarixchi Xondamir asarlarida nazarga tashlanishicha, Sul-ton Husayn, uning o‘g‘illari, saroy a‘yonlari amir-u umarosi ko‘ngliga marg‘ub ishlardan biri qushchilik va ovchilik hunari bo‘lgan. “Sul-ton Husayn Boyqaro shikorda edi. Qush va maral²¹ ovini xush ko‘rardi” ,– deb yozadi G‘iyosiddin Xondamir.²² “Habib us-siyar”da zikr qilinishicha, ov uchun tanlangan Karnon tepaligida o‘t-o‘lanlar ko‘karib unchalik ham chuqur bo‘lmagan ariq yuzini qoplaydi. Suv yo‘li yoki jo‘yak bilan tekis yer orasida tafovut qoldirmaydi. Ovg‘a butun vujudi bilan sho‘ng‘igan podshoh oyog‘i ostidagi notekis, o‘nqir-cho‘nqir yerlarni ham, kuz, qish, bahor fasllarida yog‘gan yomg‘ir, qor suvlarini tepalikdan pastga oqizish maqsadida qazib qo‘yilgan ko‘z ilg‘amas kichkina ariqchani ham e‘tibordan soqit qoldiradi. Oyog‘i tasodifan chuqurlikka tushib ketib, o‘z og‘rami bilan yerga yiqiladi. Oyog‘i va belidan qattiq shikast topadi. Shahzodalar otalarini saroyga olib kelib tabiblarga qaratadilar. Podshoh og‘rib ancha muddat yotib qoladi. Ahvol shu darajaga yetadiki, Sul-ton Husayn Mirzo xotinlari arasida xusumat kuchliligidan hech birlari Mirzoga ko‘ngildagidek xizmat qilmaydilar. Shohning bosh xotini Beka Sul-tonbegim tomonidan uyushtirilgan fitna qurboni bo‘lgan Sul-ton Husayn Mirzoning yosh, suyukli xotini Opoqbegim bundan xabar topadi. Bu paytda u saroydan chetlatilgan edi. U Sul-ton Husayn Boyqaroni ko‘rgani kelib, parvarishlay boshlaydi. **“Aning Mirzog‘a sadoqati bisyor ermish”**,²³ – deb yozadi G‘iyosiddin Xondamir. Opoqbegim shaxsiga munosabatda ikki buyuk allomaning fikrlari yagona nuqtada uyg‘unlashadi. “Boburnoma”dan o‘qiymiz: **“Yana biri Opoqbegim erdi. Andin hech o‘g‘ul va qiz bo‘lmadi. Muncha suyuklik erdi. Popo og‘achakim, muning ko‘kaldoshi erdi. Chun o‘g‘ul qizi yo‘q erdi. Popo og‘achaning o‘g‘lonlarini o‘g‘lidek saqlar edi. Mirzoning behuzurliqlarida bisyor yaxshi xizmat qilur edi, haramlaridin hech kim muncha xizmat qila olmas edi”**.²⁴ Mazkur lavha bir inson hayotining shunchaki so‘zdagi ifodasi emas, hayot qonuniyatlarini chuqur mushohada etgan, pok e‘tiqodli Mirzo Boburdek yetuk shaxsning talqinlari sifatida qaralmog‘i kerak. “Boburnoma”dan keltirilgan iqtibosda e‘tiborni o‘ziga tortadigan to‘rt muhim nuqta bor. Dissertatsiyada komil ayol axloqiga xos o‘sha husnu-xulq namunalari teran tahlil qilindi va Opoqbegim obraziga xos ma‘naviy go‘zalliklar ochib berildi.

²¹ "Maral"ning izohli lug'atda kiyik, bug'ularning katta shoxli yirik bir turi kabi ma'nolarda kelishi berilgan. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Moskva: "Rus tili", 1981. – B 447.

²² ۱۳۶۲ ھ. ش. ص. ۴۰۲-۴۰۳.; G'iyosiddin ibn Humomiddin Xondamir. Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar. Ismoil Bekjonov tarjiması. – Toshkent: O'zbekiston, 2013, B.:187 – 188.

²³ ۱۳۶۲ ھ. ش. ص. ۴۰۲-۴۰۳.; G'iyosiddin ibn Humomiddin Xondamir. Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar. Ismoil Bekjonov tarjiması. – Toshkent: O'zbekiston, 2013, B.:187 – 188.

²⁴ Bobur. Z. M. Boburnoma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – B.285.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Tarixiy jarayonda malikalar va shoh haramidagi boshqa begimlarning o’rni”** deb nomlangan va uch fasldan iborat. Bobning birinchi fasli **“Ayol sifati va nuqsining Bobur Mirzo qalamidagi talqini: Beka Sultonbegim, Shahribonubegim, Qutluq Begim, Hul-hul Enaga”** deb yuritiladi. Ma’naviyatimizning qadimiy sarchashmasi “Avesto”da Ahuramazda tilidan quyidagi keskin fikrlar zikr qilingan: “Ey badkor xotin-kaxovariza, sen kadxudoni nazarga ilmay, unga itoatsiz bo’lding. Sen uning ishonchidan chiqding...”²⁵ Eriga itoatsizlik qilib kibrlangan ayollar hamma zamonlarda ham qattiq qoralangan. Shunday ayollar obrazining ixcham talqini Zahiriddin Muhammad Bobur e’tiboridan ham soqit qolmagan. “Boburnoma”dan o’qiymiz: **“Avval olg’on xotuni Beka Sultonbegim erdi. Sanjar Mirzo Mavriyning qizi erdi. Badiuzzamon Mirzo mundin tug’ib erdi. Ko’b kajjulq erdi. Sulton Husayn Mirzoni ko’p og’ritur erdi. Kajjulqlig’idin Mirzo batang keldi. Oxiri qo’ydi va xalos bo’ldi. Ne qilsun haq Mirzo jonubi erdi”**.²⁶ Husayn Boyqaro Abulqosim Bobur Mirzo vafotidan so’ng Mashhaddan Hirotda kelganida Abulqosim Boburning eng ishonchli vaziri Sanjar Mirzo Mavriy o’n to’qqiz yoshli Husayn Boyqaroga o’z taklifi bilan qizi Beka Sultonbegimni nikohlab beradi. “Vaqoe” muallifining talqinlaridan ayon bo’ladiki, Beka Sultonbegim nihoyatda kibrli, o’ziga bino qo’ygan ayol bo’lib, Sulton Husayn Mirzoni ko’p ranjitgan. “Habib us-siyar” muallifi, Marv hukmdorining qizi Beka Sultonbegimning chiroyli, xushsurat bo’lsa-da, badfe’l, itoatsiz, qizg’anchiq ekanligini qayd etadi.²⁷ Beka Sultonbegim o’zining mashhur sanjariylar avlodiga mansubligi va Sultonning katta xotini ekanligini ro’ykach qilib, haram ahliga tichlik bermagan. Haramdagi kundoshlarining nasl-nasabini kamsitib, bir necha bor g’umma va g’unchachilar orasida fitna urug’ini sepishga uringan. Sulton Husaynning haramidagi boshqa ayollar bilan samimiy yaqinligini ko’rib qolsa, chayonday chaqib olib, zahar sochishdan, hatto Xuroson mamlakati podshosini mulzam qilishdan ham tap tortmagan. Sulton Husayn Boyqaro ko’z ochib ko’rgan to’ng’ich xotining “kibr ibtilosiga iloj” (Navoiy) topa olmaydi. Beka Sultonbegimning tinimsiz achchiq taziyoqlari, dashnomlaridan to’yib, sabr kosasi to’lgan shoh axiyri uni taloq qiladi. Eriga itoatsiz, kibru havo-yu qahr-g’azabga mukkasidan ketgan malika Beka Sultonbegimning qismati shu tariqa yakun topadi. Bobur Mirzo so’zining oxirida, **“Tengri hech musulmong’a bu baloni solmag’ay, yomon xo’yluq, kajjulq xotun ilohiy olamda qolmag’ay”**,²⁸ – deya o’z so’zlariga yakun yasab, Shayx Muslihiddin Sa’diy ijodidan quyidagi baytni keltiradi:

Zani bad dar saroyi mardi nako’,
Ham dar in olam ast do’zaxi o’.

Baytning mazmuni: Yaxshi kishining xonasidagi yomon xotin shu dunyoning o’zidayoq uning do’zaxidir.

Mavzu taqozosiga binoan Sharq adabiyotining ulkan namoyandalari ijodidan keltirilgan bunday namunalar “Boburnoma” badiiyatini ko’tarishda muhim ilmiy

²⁵ Авесто. Аскар Маҳкам таржимаси. — Тошкент: Шарқ нашриёт уйи,— 2001. — Б.114.

²⁶ Bobur. Z. M. Boburnoma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – B.284.

²⁷ خندامير. Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar. (Sharqshunoslik instituti qo’lyozmalar fondidan 9-008-7321-06 raqamli forcha qo’lyozma. Fors tilidan tarjima bizniki).

²⁸ Bobur. Z. M. Boburnoma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – B.284.

qimmat kasb etadi. "Vaqoe" tasvir uslubi talabiga ko'ra 322 misra turkiy va forsiy tilda yaratilgan she'rlar asar sahifalariga singdirilgan.²⁹ Shayx Sa'diy ijodidan matni keltirilgan bayt ulug' fors-tojik shoiri tarjimai holiga to'la dahldorligi va Beka Sultonbegim obrazi sharhiga xizmat qilishi bilan Bobur Mirzo obraz yaratishdagi mahoratining yana bir noyob qirrasini namoyon qiladi. Beka Sultonbegim Husayn Boyqaroning birinchi xotini bo'lganidek, Shayx Sa'diy baytining yaratilishiga sabab bo'lgan ayol ham ulug' pandnomanavis ijodkorning ko'z ochib ko'rgan taalluqi bo'lgan. Sulton Husayn Beka Sultonbegimning kajxulqligidan uni taloq qo'yib qutulgan bo'lsa, Shayx Sa'diy o'z ayolining do'zax olovini eslatuvchi nafasidan Kalifdan Sherozga qaytib ketib xalos bo'lgan.

Inson qanchalik murakkab, anglash qiyin bo'lgan sir-sinoatlar bilan to'la tilsim bo'lsa, ayol tabiatining qirralari ham shunchalik behisob. Dissertatsiyada Abusa'id Mirzoning Husayn Boyqaro nikohidagi qizi **Shahrbonubegim**, Samarqand podshosi Sulton Ahmad Mirzoning eng suyukli, ammo mayxo'r xotini **Qutluq Begim** obrazlarini chuqur tahlil qilish orqali diyonat va islomiyat ayol shaxsiyatida kuzatilmasa oilaning barbod bo'lishi dalillangan. Bir umr "Boburnoma" muallifi bilan chog'ir ichishni orzu qilib, axiyri murodi hosil bo'lgan **Hul-hul Enaga** obrazini tahlil qilish orqali dunyo adabiyotidagi boshqa biron qahramon timsolida kuzatilmagan Mirzo Bobur shaxsiyatiga xos insoniy go'zalliklar ochib berilgan.

Bobning ikkinchi fasli "**Vaqoe**"da **Xadicha Begim va Zuhrabegi Og'a shaxsiyati tasviri**" tadqiqiga bag'ishlangan. Boshqa xotin-qizlar obrazining yaratilishida kuzatilgani kabi "Vaqoe" muallifi Xadicha Begim va Zuhrabegi Og'a timsollariga munosabatda ham o'zining yomonlikni rad etish, yaxshilikni ulug'lash konsepsiyasida qat'iy turgan. Sulton Husayn Boyqaro saltanatida qudratli mavqega ega bo'lgan Xadicha Begim obrazi "Boburnoma"da tarixan aniq, badiiy jihatdan mukammal yaratilgan. "Vaqoe" muallifi Xadicha Begimni o'quvchiga quyidagicha tanishtiradi: "**Yana Xadicha Begim edi. Sulton Abusa'id Mirzoning g'unchachisi edi, Mirzodan bir qizi bor edi. Oqbegim otliq. Iroqta Sulton Abusa'id Mirzoning shikastidan so'ng Hiriya g'achisi keldi. Hiriya Sulton Husayn Mirzo oldi va sevdi. G'unchachilik martabasidan begimlik martabasig'a taraqqiy qildi**".³⁰ Husayn Boyqaroning suyukli nabirasi Mo'min Mirzoning toju taxt, saltanat ilinjida shu ayol tashabbusi bilan begunoh o'ldirilishi Xadichabegim obraziga xos hasad, zulm, shafqatsizlik, buzg'unchilikni yaqqol namoyon qiladi. "Vaqoe" muallifi yozadi: "**Muhammad Mo'min Mirzoni aning sa'yi bila o'lturdilar. Sulton Husayn Mirzoning o'g'lonlari yog'uqdilar, ko'pragi buning jihatidin edi**".³¹ Ko'rinadiki, Sulton Husayn Boyqaro 37 yil hukmronlik qilgan saltanatning darz ketishida, og'a-inilar o'rtasiga nifoq solgan Xadichabegimning hissasi kam bo'lmagan. Uning itoatsizligi, o'zboshimchaligi, podshoh erining farmonlarini emas, xufyona tarzda o'z nafi buyruqlarini bajarishi mamlakatning parokanda bo'lishiga, davlatning parchalanishiga olib kelgan. Sulton Husayn Boyqaro asos solgan, salkam 40 yil yashagan qudratli mamlakat tanazzulga yuz tutib, uning vafotidan keyin davlatchilik tarixida kuzatilmagan ikki

²⁹ Қаранг: Воҳидов Р. Биз билган ва билмаган Бобур. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 83.

³⁰ Bobur. Z. M. Boburnoma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – B.284.

³¹ Bobur. Z. M. Boburnoma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – B.285.

hokimiyatchilik qiyofasida o'zidan xabar bergan. Va ko'p o'tmay buyuk Navoiyning aql nuri bilan yoritilgan shunday ko'rkam davlatdan asar ham, xabar ham qolmagan.

Xadicha Begim o'ziga ko'rsatilgan ehtiromni, rag'batni, muhabbatni suiiste'mol qilish darajasiga borib yetgan. Bosh malika, birinchi qirolicha sifatida, oila va davlat boshqaruvida tutgan o'z o'rni, vazifasi va mas'uliyatini mutlaqo e'tibordan soqit qoldirgan. Shuning uchun ham ideal bosh malika timsolini Saroymulk Xonim, Gavhar Shod Begim, Esandavlat Begim, Qutlug'nigor Xonim, Mohim Begim siymosida kuzatgan sinchkov va zakiy Mirzo Bobur qudratli Xuroson davlatining "mahdi ul'yo"si (Navoiy) shaxsiyati haqida mulohaza yuritar ekan, **"O'zini oqila tutar edi, vale beaql va purgo'y xotin edi"**, – deb yozadi.

Saltanat havosi Xadicha Begimning ko'zlarini ko'r, quloqlarini kar qilib qo'ygan. U Sulton Husayndan keyin qonuniy taxt vorisi Badiuzzamon Mirzoni emas, o'z o'g'li Muzaffar Husaynni Xuroson taxtida ko'rishni istagan. Shuning uchun ham qo'lini yosh shahzoda Mo'min Mirzoning qoniga botirgan. Johilona xatti-harakati bilan shahzoda aka-ukalar orasiga xusumat urug'ini ekan. Shunday ham silkinib turgan Xuroson saltanatini larzaga solgan. Hirot saltanatida Badiuzzamon va boshqa shahzodalarning Husayn Boyqaro farmonlariga itoat etmaslik, markaziy hukumatga qarshi oshkora kurashish holatlarining yuzaga kelishiga Xuroson mamlakati saroyining bosh malikasi Xadicha Begim asosiy sababchilardan biri bo'lgan. Ko'rinadiki, ziyrak va zakiy Bobur Mirzo "mahdi ulyo, ismatut dunyo"ning (Navoiy) zohiriy go'zalliklar, madhu sanolar zamiriga yashiringan botinidagi jaholatni tarixiy voqealar fonida san'atkorona ochib bergan.

Zuhrabegi Og'a. Zuhrabegi og'a – Sulton Abusa'idning uchinchi o'g'li Sulton Mahmud Mirzo e'tiborini tortgan kanizaklardan bo'lgan. 1500-yilda Samarqand toj-taxti Zuhrabegi Og'aning o'g'li Sulton Ali Mirzo tasarrufida edi. "Boburnoma"dan o'qiyimiz: "Keshga kelgandin bir-ikki haftadin so'ng xabar keldikim, Sulton Ali Mirzo Samarqandni Shayboniyxong'a berdi. Tafsihi budurkim, **Sulton Ali Mirzoning onasi Zuhrabegi Og'a bilmasligidin va beaqlig'idin maxfiy Shayboniyxong'a kishi yuborur, bu mazmun bilakim, Shayboniyxon ani olur bo'lsa, o'g'li Shayboniyxong'a Samarqandni bergay.** Otasining viloyatini olg'ondin so'ng Sulton Ali Mirzog'a bergay".³² "Boburnoma"dan ko'chirilgan iqtibosga e'tibor bersak, Z.M. Bobur Zuhrabegi Og'a timsolidagi ikki salbiy xususiyatga o'quvchi e'tiborini qaratgan. Bular: **bilmaslik va beaqlilik.** Mirzo Bobur talqinicha, Zuhrabegi Og'a siyosiy vaziyatga to'g'ri baho bera olish narida tursin, oddiy hayot oqimini, birinchi navbatda ko'z o'ngida bo'layotgan voqealarni tushunib yetmagan. Uzoq vaqt saroy muhitida yashagan bu ayol shahzodalar o'rtasidagi toj-taxt kurashlari, ichki nizolar, mansab-amal, martaba ilinjida yuz bergan fitna-fasod, ayovsiz kurash, qonli to'qnashuvlardan hech qanday saboq olmagan. O'z nomusini toptash, marhum eri ruhini kamsitish bilan bir sulola orasida emas, ikki muxolif sulola o'rtasidagi ixtilofga osongina barham bermoqchi bo'lgan. Siyosiy savodsizligi, yaxshini yomondan, oqni qoradan ajrata bilmaganligi uchun qattiqqo'l va shafqatsiz Shayboniyxondan marhamat kutgan. Z.M. Bobur birgina so'z ("**bilmaslik**")

³² Bobur. Z. M. Boburnoma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – B.131.

vositasida Zuhrabegi Og'a shaxsiyatidagi eng og'riqli, alamli nuqtani bexato nishonga olgan. Marhum Samarqand podshosi Sulton Mahmud Mirzoning bevasi Zuhrabegi Og'aning nodon, johil, to'g'ri mushohada yurita olish qobiliyatiga ega bo'lmagan, chala dumbul ayol ekanligini san'atkorona asoslagan.

Zuhrabegi Og'a xarakteri va irodasining zaifligini maxsus ta'kidlashga xizmat qilgan ikkinchi so'z – **“beaqllik”**. Aql – insonning qudrati, ziynati. U insonni sharaflaydi, jamiyat a'zolari o'rtasidagi darajasini, maqomini belgilab beradi. Haq subhanahu taolo insonni boshqa yaratilmishlardan aql tufayli mumtoz qilgan. Hazrati inson asrlar davomida o'zi va xalqi boshiga tushishi mumkin bo'lgan ofatni, aql kuchi bilan qaytarib kelgan. Zuhrabegi Og'ada ana shu eng asosiy narsa – aql gavhari bo'lmagan. Shuning uchun ham o'zini va o'g'lini, elini va yurtini bo'ynini bog'lab Shayboniyxon qo'liga topshiradi.

Zahiriddin Muhammad Bobur – zukko so'zshunos. U tarixiy jarayonning yorqin talqinini berish, obrazning asl mohiyatini ochishda so'z imkoniyatlaridan mohirona foydalangan. Aql va fikr bir-biri bilan mustahkam bog'langan, tana va jon kabi yagona vujud. Mirzo Boburning talqinlaridan ayon bo'ladiki, beaql Zuhrabegi Og'ada mustaqil fikr ham bo'lmagan. **“Boburnoma”** muallifi Zuhrabegi Og'ada mustaqil fikr bo'lmagani, **“bu bedavlat xotun noqis aqli va erga tegar havosi bilan o'z o'g'lining xonumonini barbod qilganini”**³³ “Vaqoe”dagi Abu Yusuf arg'un, Sulton Ali Mirzo, Shayboqxon obrazlari orqali yanada mukammal, har tomonlama mufassal ochganligi dissertatsiyada tahlillar asosida dalillangan.

Uchinchi bobning uchinchi fasli **“Begim Sulton – karam timsoli”** deb nomlangan. Begimsulton va Begisulton ismlarining yozuvdagi va talaffuzdagi ifodasidagi farq bir “mim” harfidadir. Agar shoir yoki adib shunday kalimalardan foydalanib badiiy matn yaratsa **“Badoyius – sanoyi”** (Atoulloh Husayniy) sharhiga ko'ra, badiiy mahoratning bunday namunasi tajnisi muzayyal deyiladi. Begimsulton va Begisulton **“Boburnoma”**da alohida-alohida timsollar sifatida talqin qilingan. Har ikkala xotin-qiz ham bir tarixiy shaxsga tegishliligi bilan e'tiborni tortadi:

1. Begisulton – o'zbek qavmlarining Shayboniyxon va shayboniylar mansub bo'lgan urug'idan bo'lgan. Sulton Husayn Boyqaroning xotinlaridan biri.

2. Begimsulton – Sulton Husayn Boyqaroning qizi. Onasi Popo Og'acha bo'lgan. Estetik qiymat kasb etgan. Inson hayotining umumlashma ayni choqda konkret manzarasi (L.Timofeyev) Begimsulton obrazida yorqin nazarga tashlanadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur temuriy avlodlari o'rtasida kechgan ishqiy munosabatlarni ham e'tibordan soqit qoldirmagan. “Vaqoe”dagi ishoralarga ko'ra, Samarqand podshosi Sulton Mahmud Mirzoning to'ng'ich o'g'li Sulton Ma'sud Mirzo Husayn Boyqaro va ammasi Poyanda Sultonbegimning nikohidan tug'ilgan Kichikbegimga qattiq ko'ngil qo'ygan. Kichikbegim ham temuriy qarindoshiga moyil bo'lgan: **“Ikkinchi qizi Kichikbegim edi. Sulton Ma'sud Mirzo bisyor moyil erdi”**.³⁴ Muhabbat – azaliy va abadiy mavzu. Shuning uchun asrlardan asrlarga, zurriyotlardan zurriyotlarga, avlodlardan avlodlarga o'tgan sayin “Vaqoe”dagi bunday lavhalar yanada salmoq va teran badiiy mazmun kasb etadi. “Vaqoe”da **“muhabbat aralashirilgan”** (Habibullo Qodiriy) sahifalar, badiiy lavhalar kam. Bor

³³ Bobur. Z. M. Boburnoma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – B.72.

³⁴ Bobur. Z. M. Boburnoma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – B.282.

lavhalar esa asar badiiyatini ko‘tarishga, tarixiy voqealarni hayotiy, ta’sirchan ifodalashga, epik timsollarni yorqin gavdalantirishga xizmat qiladi. “Boburnoma”da talqin qilinishicha, Sulton Ma’sud Mirzo muhabbat bobida o‘zini qat’iy tutadi. Kichikbegimga erishish umidida ko‘p sa’y va g‘ayrat ko‘rsatadi. Ammo uning xatti-harakatlari Poyanda Sultonbegimning qattiq qarshiligiga uchraydi. Poyanda Sultonbegim o‘z qizini temuriy jiyaniga emas, sayyid ota avlodidan bo‘lgan Mullo Xojaga uzatadi. Mas’ud Mirzoning taqdirida Husayn Boyqaroning qizlaridan biriga uylanish taqdir hukmi bilan bitilgan. Kichikbegim va Sulton Ma’sud munosabatlarida kuzatilgani kabi Xuroson podshosining g‘unchachisidan dunyoga kelgan qizi bilan Sulton Ma’sud Mirzo orasida hech qanday muhabbat bo‘lmagan. Husayn Boyqaroning mardligi tufayli uning Begimsulton ismli qizi bilan Sulton Ma’sud Mirzo o‘rtasida nikoh tuzilgan.

Tarixdan ma’lumki, toju taxt uchun kurashlar ayrim saltanatga da’vogar shahzodalarning ko‘zlariga mil tortib jarohat yetkazish bilan yakunlangan. Ko‘zi ojiz shahzoda hukmdorlikdan, toju taxt da’vosidan mahrum bo‘lgan. Sulton Mahmudning mazkur to‘ng‘ich o‘g‘li o‘zidan kichik ukasi Boysung‘ur Mirzoning ta’qibidan qochib, Sulton Husayn Boyqaro davlatidan panohtopadi. Poytaxt Hirotda o‘ziga qanchalik yaxshi munosabatda bo‘lishganiga qaramay, xudbinlik qiladi. Sulton Husayn saroyidan Xisravshoh huzuriga qochib boradi. Uning bu o‘z boshimchaligi, mulohazasizligi Xisravshoh tomonidan ko‘zlariga mil tortilishi bilan intiho topgan.

Sulton Ma’sud Mirzo o‘zini qanchalik toptagan, xo‘rlagan bo‘lsa, Sulton Husayn Boyqaro bu noshud, andishasiz avlodiga nisbatan shunchalik ehtirom ko‘rsatadi. Sulton Husayn Boyqaro va uning suluv qizi Begimsultonidagi insoniy go‘zalliklar Sulton Ma’sud Mirzoga yangi hayot beradi. “Boburnoma”dan o‘qiymiz: **“Ikkinchi qizi Begimsulton edi. Sulton Ma’sud Mirzog‘a ko‘zi mayib bo‘lg‘ondin so‘ng berib edilar. Bir qiz, bir o‘g‘ul ko‘rib edi”**.³⁵ “Boburnoma”dagi ayni talqinlar Mirzo Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy” asaridagi ma’lumotlar bilan to‘la mos keladi: “Xeyli husni bor edi. Xusravshohdek badkirdor o‘zi asrag‘an va tarbiyat etgan o‘g‘lunikim Sulton Ma’sudni ko‘ziga nashtar sanchib mayib etmish. **Andin shahzodaga parvarish vajidin Sulton Husayn binni Mansur Boyqaronikim qizini berib edilar. Sulton Ma’sudni bisyor parvarish qilib erdi. Hech bir xotun bunchalik xizmat qilg‘on ermas”**.³⁶

“Boburnoma” va “Tarixi Rashidiy” muallifi Sulton Husayn va uning suluv qizi Begimsulton bilan aloqador tarixiy voqealarni g‘oyatda nozik talqin qilgan. Birgina “Andin shahzodaga – Sulton Ma’sud Mirzoga Husayn Boyqaro parvarish vajidin” ifodasi zamiriga behad teran ma’noni sig‘dirgan. Odatda, ota qizini baxtli bo‘lishi uchun turmushga beradi. Sulton Husayn esa o‘z dilbandini baxtli bo‘lishi uchun emas, nogiron temuriy qarindoshini parvarish qilishi uchun, uning majruh jismi va so‘ngan yuragiga malham bo‘lishi uchun turmushga uzatgan. Go‘zal Begimsulton bor haqiqatni anglab, bilib turib shunday nikohga rozilik bergan. Zahiriddin Muhammad Bobur va Mirzo Muhammad Haydar talqinidagi hayotiy lavhalar Begimsultonning eng oliy insoniy go‘zallik – karam

³⁵ Bobur. Z. M. Boburnoma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – B.282.

³⁶ Muhammad Haydar Mirzo. Tarixi Rashidiy. – Toshkent: Sharq NMAK, 2010. – B.137-138.

sohibasi ekanligini sharhlaydi. Dissertatsiyada Begimsulton obraziga xos axloqiy-ma'naviy go'zalliklar keng yoritilgan.

XULOSA

1. "Boburnoma"da talqin qilingan har bir ayol obrazi Zahiriddin Muhammad Boburning voqelikni teran his qilish iqtidori, aqliy salohiyati, sinchkov tabiatining ifodasi, bemislu-bemonand tafakkurining mahsulidir. Ixcham va ta'sirchan tasvir, voqea-hodisalarni aniq va tiniq aks ettirish "Vaqoe" badiiy uslubiga xos xususiyatdir.

2. "Vaqoe"da tilga olingan yuzga yaqin xotin-qizlarning xoh to'laqonli, xoh yordamchi, epizodik obraz bo'lsin jismoniy go'zalligi mutlaqo tasvirga olinmagan. "Boburnoma" muallifi ayol shaxsiga fatonat (aqliy mushohada) va shijoat, idrok va zakovat, vafo va hayo, itoat va munislik, sadoqat va muhabbat, diyonat va islomiyat kabi masalalar nuqtayi nazaridan munosabatda bo'lgan hamda xotin-qizlar obrazini ana shu ruknlar mohiyatidan kelib chiqib yaratgan.

3. "Tarixi Boburiy"da obraz yaratishda badiiy to'qimadan foydalanilmagan. Har bir ayol shaxsiyatiga xos xususiyatlar hech qanday mubolag'alarsiz, to'qimalarsiz, mavhum mulohazalarsiz, hissiy yaxlit, bir butun takrorlanmas tarzida aniq aks ettirilgan.

4. Muallif obrazi bilan yonma-yon "Vaqoe" voqealarining markazida turib, tarixiy-adabiy asar sujetini harakatga keltirgan, rivojlantirgan, bosh g'oyani o'zida tashiydigan Esan Davlat Begim, Qutlug' Nigorxonim, Xonzoda Begim, Mohim Begim obrazlari estetik qiymat kasb etgan inson hayotining individual, ayni choqda umumlashma manzarasini namoyon qiladi.

5. Yigirma ikki qismdan iborat "Boburnoma"da tasvirlangan yil voqealarining barchasi yagona maqsadga yo'naltirilgan. Bir necha qahramonlar, xotin-qizlar timsoli aks ettirilgan qismlar butunga bo'ysunadi. Muallif obrazi bilan birlikda yagona go'zallik, yaxlitlik, individuallikni yuzaga keltiradi.

6. Bosh qahramonlar xarakteridagi ijobiy yoki salbiy xususiyatlarni ochish maqsadida muallif Shohbegim, Bibi Muborika, Beka Sulton Begim, Shahribonu Begim, Qutlug' Begim, Poyanda Sulton Begim, Popo Og'ocha, Hul-hul Enaga, Oysha Begim, Otinbibi kabi yordamchi obrazlardan san'atkorona foydalangan.

7. "Boburnoma"ning 1505-1506- yil voqealariga bag'ishlangan qismi alohida yurak tafti bilan yozilgan. Sulton Husayn Boyqaro tarixi va shaxsiyati yoritilgan mazkur qism "Tarixi Boburiy" ichidagi mustaqil asar maqomini olgan. Shuning uchun ham 1505- 1506- yil voqealari bayonida talqin qilingan Xadicha Begim, Feruza Begim, Oqobegim, Opoqbegim, Begim Sulton timsollari to'laqonli obraz darajasiga ko'tarilgan.

8. Har qanday siyosiy jihatdan murakkab, mushkil vaziyatda ham do'st-u dushmanligidan qat'iy nazar ayol zotining haqqini ado qilish, unga ehtirom ko'rsatish Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiyatiga xos eng noyob fazilatdir. Do'st yoki dushmanligidan qat'iy nazar "Boburnoma"da qalamga olingan har bir shaxs xolis va to'la-to'kis baholangan.

9. "Boburnoma" da tasvirlangan xotin-qiz obrazlari tarixiy shaxslar va tarixiy voqelik bilan chambarchas bog'langan bo'lib, bu timsollar yetakchi yoki epizodik bo'lishidan qat'i nazar ularni umumiy manbadan – "sabablarning sababiyati – iqlim va makondan"(Belinskiy) uzib olib tahlil qilib bo'lmaydi.

10. “Vaqoe”da oila, davlat ma’naviy barqarorligining ijtimoiy asoslarini belgilab beruvchi, millatning eng dastlabki o’zagi, birlamchi bo’g’ini ekani Esandavlat Begim, Qutluqnigor Xonim, Feruza Begim, Oqobegim, Mohim Begim, Opoqbegim, Begim Sulton obrazlari misolida chuqur asoslangan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc 03/04.06.2021 Fil.72.09 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
БУХАРСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

БАРОТОВА ХУРШИДА ЖАЛОЛОВНА

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗА ЖЕНЩИНЫ В «БАБУРНАМЕ»

10.00.02 – Узбекская литература

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации на соискании учёной степени доктора философии (PhD) по
ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Бухара – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована под номером № 37.37 в Высшей аттестационной комиссии

Диссертация выполнена в Бухарском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Бухарского государственного университета (www.buxdu.uz) «Ziyonet» (www.Ziyonet.uz)

Научный руководитель:

Хайитов Шавкат Ахмадович,
доктор филологических наук(ДСс), профессор

Официальные оппоненты:

Сулоймонов Исроил Исомиддинович,
доктор филологических наук(ДСс), профессор
Жабборов Нурбой Абдулхакимович,
доктор филологических наук, профессор

Ведущая организация:

Наманганский государственный университет

Защита диссертации состоится «_____» «_____» 2024 года в _____ часов на заседании Научного совета DSc 03/04.06.2021 Fil.72.09 Бухарском государственном университете (адрес: 200118, город Бухара, улица М. Икбол, дом № 11. Тел.: (0 365) 221-29-14; факс: (0 365) 221-29-14, email: buxdu_rektor@buxdu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университета (зарегистрирована за №____). Адрес: 200118, город Бухара, улица М. Икбол, дом № 11. Тел.: (0 365) 221-29-14.

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2024 года

(Протокол-реестр рассылки №____ от «__» _____ 2024 года)

Ё.С. Саидов

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

А.Р. Ахмедов

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доцент

Д.З. Ражабов

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Актуальность и необходимость темы диссертации. Мировая литература на всех этапах своего развития опирается на новые, наиболее передовые литературно-эстетические традиции. Глубокое выражение социальной действительности, четкое и ясное отражение в ней человеческой жизни и личности без каких-либо преувеличений, фактур демонстрируют особую вековую и вневременную ценность “Бабурноме” как историко-литературного произведения. Выражение общечеловеческих ценностей, общечеловеческих чувств, особенно затрагивающих общественную и культурно-просветительскую жизнь женщин, находит свое полноценное и глубокое отражение в “Бабурноме”, так что исследование этой же проблемы определяет актуальность темы.

В мировом литературоведении растет интерес к поэтическому миру “Бабурноме”. Обладая неповторимым идейно-художественным размахом, неповторимым стилем изображения, это энциклопедическое произведение, дающее редкие сведения более чем в двадцати областях науки, уже почти 500 лет привлекает внимание мировых литературоведов. Он дал ручку в руки десятков мудрецов по всему миру. Сегодня более глубокое изучение “Вакое” стало актуальной проблемой мирового литературоведения. Именно поэтому, опираясь на огромные достижения, достигнутые мировой литературой, приобретает значение исследование женских образов, трактуемых в “Бабурноме”.

В период независимости и в предшествующие годы в узбекском литературоведении были проведены плодотворные научные исследования по исследованию “Бабурноме”, в то же время немало проблем, ожидающих своего решения. В области социально-бытового, духовно-просветительского, научного, интеллектуального потенциала никогда в истории человечества не уделялось так много внимания вопросу женщин, как в независимом Узбекистане. Этот важнейший принцип стратегии страны выдвигает глубокое исследование женских образов в “Бабурноме”, как чрезвычайно актуальную литературно-эстетическую категорию.

Указ Президента Республики Узбекистан от 20 апреля 2017 года № ПП-2909 “О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования”- от 24 мая 2017 года № ПП-2995, “О мерах по дальнейшему совершенствованию системы сохранения, исследования и пропаганды древних письменных источников”, постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан от 16 февраля 2018 года № 124-Ф, “О мерах по совершенствованию системы изучения и пропаганды узбекской классической и современной литературы на международном уровне”, постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года № ПП-4865, “О праздновании 580-летия со дня рождения великого поэта и мыслителя Алишера Навои”, Указ от 28 января 2022 года № ПФ-60 “О новой стратегии развития Узбекистана на 2022-2026 годы”, от 5 марта 2021 года № ПФ- № 5020 “О мерах по дальнейшему совершенствованию системы поддержки женщин, обеспечения их активного участия в жизни общества”, № ПФ-87 от 7 марта 2022 г, “О мерах по дальнейшему ускорению работы по системной поддержке семьи и

женщин”, 2023 г. Распоряжение ПФ-208 от 21 декабря “О дополнительных мерах по совершенствованию деятельности комитета семьи и женщин” и другие нормативные акты, касающиеся данной деятельности – научные результаты данного исследования в определенной степени служат реализации задач, поставленных в правовых актах.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики. “Формирование системы инновационных идей и их реализация в социальном, правовом, культурном, духовно-просветительском развитии информатизированного общества и демократического государства”.

Степень изученности проблемы. Степень изученности проблемы. В освещении таких вопросов, как публикация, перевод, исследование “Бабурноме”, художественные особенности произведения, историко-художественная ценность, изобразительное мастерство автора, специфический стиль повествования, А.Фитрат,³⁷ М.Шайхзода, Х.Якубов,

